



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
VI-QISM**

Google Scholar



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
VI-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

ISLOMIY BANK FAOLIYATI TO'G'RISIDAGI QONUNNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH: O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY INKLYUZIVLIKNING KONTSEPTUAL, METODOLOGIK VA INSTITUTIONAL ASOSLARI	12
Abdullayev Azamat Akbar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В ОРГАНИЗАЦИЯХ РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛИ НА ОСНОВЕ ОЦЕНКИ ОПЕРАТИВНОСТИ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО ЦИКЛА	17
Джуманиязова Сабина Михайловна	
PAHTA TOZALASH USKUNALARI DETALLARINING XIZMAT MUDDATINI OSHIRISH UCHUN GETEROKOMPOZIT POLIMER MATERIALLAR TARKIBINI ISHLAB CHIQUISH	22
Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich	
O'ZBEKISTONDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATI: TAHLIL VA NATIJALAR.....	29
Ubaydullayev Muxammadjon Abdusamad o'g'li	
Akbarov Diyorbek Ashirali o'g'li	
TRANSFORMING CORPORATE GOVERNANCE TO MEET THE CHALLENGES OF MODERN BUSINESS MODELS.....	32
F. Djalilov	
O'ZBEKISTONDA QURILISH SOHASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ULARNI BAHOLASH	41
Abdullayev Axror Jaxbarovich	
ЭКОНОМИКА ГОРОДСКОЙ МОБИЛЬНОСТИ: ПОТЕНЦИАЛ ЭЛЕКТРИФИКАЦИИ ОБЩЕСТВЕННОГО ТРАНСПОРТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	47
Махкамова Надира Саидмуратовна	
MINTAQA TUMANLARI O'RTASIDAGI INVESTITSIYA VA BANDLIK NOMUTANOSIBLIK LARI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)	55
Ergashev Sherali Erali o'g'li	
BUXORO VILOYATI IQTISODIYOTINING STRUKTURAVIY TRANSFORMATSIYASI: AGRAR MODEL DAN DIVERSIFIKATSIYALASHGAN TUZILMAGA O'TISH TENDENSIYALARI (2020-2024-YILLAR)	60
Ergashev Sherali Erali o'g'li	
IQTISODIYOTNI ERKINLASHTIRISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA BANK TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY PRINSIPLARINI JORIY ETISH.....	65
Tashmatov Shuhrat Hamrayevich	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR KO'RSATISH IMKONIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	71
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
O'ZBEKISTONDA AVLODLARARO TRANSFERTLARNING NAZARIY ASOSLARI VA IQTISODIY MAZMUNI	77
Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna	
To'rayev Mirzohid Hoshim o'g'li	
SUN'IY INTELLEKTNING O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI	83
Hamidova Shahzoda Odiljanovna	



IQTISODIYOTDA SHAFFOFLIK, ISHONCH VA SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDA AUDITORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI VA ZARURLIGI.....	88
Sabirova Nodira Komil qizi	
RAQAMLI VALYUTALARNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI	95
Nabiyeva Zilola Saydulla qizi	
XORAZM VILOYATIDA HUDUDIY IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI	101
Avazbek Xalbekov	
IMPLEMENTATION OF PARETO ANALYSIS, SENSITIVITY ANALYSIS AND CVP MODELING TOOLS AT SATURN METAL LLC.....	108
Musaeva Shoira Azimovna	
YOG'-MOY KORXONALARINING TA'MINOT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHDA SCOR (SUPPLY CHAIN OPERATIONS REFERENCE) MODELIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	116
Yuldashev Abduxakim Abdulkarimovich	
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПРИЗНАНИЯ РЕЗУЛЬТАТОВ НЕФОРМАЛЬНОГО И ИНФОРМАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНА.....	122
Анвар Аллабергенов	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLARNING YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI.....	128
Allanazarova B.K.	
BIOIQTISODIYOT-BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARIDAN BIRI.....	135
Azimova Muxlisa Alisherbekovna	
KICHIK BIZNES TIZIMINING SINERGETIKEKONOMETRIK MODELINI ISHLAB CHIQUISH VA UNING PARAMETRLARINI BAHOLASH.....	139
Atamuratova Gulrux Muzafarovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	145
Xoltoyev Mirusmon Mirxamit o'g'li	
KIMYO SANOATI KORXONALARINING DIVERSIFIKATSIYALASHUV DARAJASINI NORMALLASHTIRILGAN ENTROPIYA INDEKSI ASOSIDA BAHOLASH.....	149
Razikov Otabek Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA YO'NALISHLARI.....	157
Matkabalova Dilorom Xalilullayevna	
MINTAQA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY KO'RSATKICHLARNI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH. (Xorazm viloyati misolida)	165
Bekjanov Dilmurod Yuldashevich	
Narmetova Dilafruz Azamatovna	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ НЕФТЕГАЗОВОЙ ОТРАСЛИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	170
Ахмедова Шахноза Козим кизи	
KREDITLASH VA MIKROQARZ TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI	175
Elbekov Jasur Ergash o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AHOLINING UZOQ MUDDATLI FOYDALANILADIGAN TOVARLAR BILAN TA'MINLANISH DARAJASINI MODELASHTIRISH VA PROGNOZLASH.....	181
Sharipova Bibijon Baxtiyorovna	



ВНЕДРЕНИЕ ЦВЕТОВОЙ СИСТЕМЫ ПАКЕТОВ ДЛЯ РАЗДЕЛЬНОГО СБОРА ТВЁРДЫХ БЫТОВЫХ ОТХОДОВ В Г. ТАШКЕНТЕ: АДАПТАЦИЯ КОРЕЙСКОЙ МОДЕЛИ НА УРОВНЕ ДОМОХОЗЯЙСТВ	189
Джусупов Кубанычбек	
ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISHNING HUQUQIY MECHANIZMLARI: ZAMONAVIY YONDASHUV VA INNOVATSION YECHIMLAR.....	196
Shamuratov Shahzod Janibek o'g'li	
SHAHARSOZLIKDA BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASINI JORIY ETISH	200
Eshov Sherko'zi Asatulloevich	
THE ROLE OF TAXES IN THE FORMATION OF LOCAL BUDGET REVENUES	205
Kimsanbaeva Maftuna Bakhodirovna	
DETERMINANTS OF STAKEHOLDER SATISFACTION WITH CUSTOMS CLEARANCE IN UZBEKISTAN: AN EMPIRICAL ANALYSIS	209
Khanifakhon Solikhova	
BANDLIKNI TA'MINLASHNING INNOVATSION YO'NALISHLARI (Xorazm viloyati misolida).....	213
Z. Sh. Matniyozova	
JIZZAX VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI VAHOLASH VA ISHLAB CHIQRARISH HAJMINI PROGNOZLASH	218
Umirova Gulmira Shodiboy qizi	
ИННОВАЦИОННЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ НИЗКОУГЛЕРОДНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ В ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА.....	224
Расулкулов Жамшидбек Акрамулович	
KORPORATIV BARQARORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK JAVOBGARLIKNING O'RNI VA AHAMIYATI.....	233
Komilova Guli Bagandik qizi	
THE ROLE OF DIGITAL INFRASTRUCTURE IN PROMOTING GREEN ECONOMIC GROWTH: EVIDENCE FROM CENTRAL ASIAN ECONOMIES.....	238
Eshboyev Mirjalol Baxrom o'g'li	
Ozatbekova Ozodaxon Nodirbek qizi	
ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОЕ ИНТЕРВАЛЬНОЕ ОЦЕНИВАНИЕ СРЕДНЕГО ЗНАЧЕНИЯ РАСПРЕДЕЛЕНИЯ, ПРИТЯГИВАЮЩЕГОСЯ К УСТОЙЧИВОМУ РАСПРЕДЕЛЕНИЮ.....	250
Турсунов Гафур Таирович	
TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY HISOBOTI MUSTAQIL AUDITINING MOHIYATI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI: BANK FAOLIYATIGA XOS RISK OMILLARINI TASNIFLASH.....	259
Ibragimov Nodirbek Bahodir o'g'li	



TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY HISOBOTI MUSTAQIL AUDITINING MOHIYATI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI: BANK FAOLIYATIGA XOS RISK OMILLARINI TASNIFLASH

Ibragimov Nodirbek Baxodir o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: nodirbek.ibragimov.96@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklari moliyaviy hisoboti mustaqil auditining iqtisodiy mohiyati va umumiy korxonada auditidan farq qiluvchi o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etiladi. Tadqiqot muammosi — bank auditiga ta'sir ko'rsatuvchi risk omillarining tizimli tasnifi yetishmasligidir. Qiyosiy tahlil, guruhlash va tizimli yondashuv asosida ushbu omillar tashqi (obyektiv) va ichki (subyektiv) guruhlarga ajratildi hamda ularning audit riski tarkibiy qismlariga ta'siri ko'rsatildi. Natijada bank audit mohiyati aniqlashtirilib, audit yondashuvining bank xususiyatlariga muvofiqligini ta'minlash imkonini beruvchi metodik asos taklif etildi.

Kalit so'zlar: tijorat banki, mustaqil audit, moliyaviy hisobot, risk omillari, audit riski, ISA, IFRS 9, kredit riski, ichki nazorat, bank audit mohiyati.

Аннотация: В статье исследуются экономическая сущность независимого аудита финансовой отчётности коммерческих банков и его специфические особенности, отличающие его от аудита обычных предприятий. Проблема исследования — отсутствие системной классификации риск-факторов, влияющих на банковский аудит. На основе сравнительного анализа, группировки и системного подхода данные факторы разделены на внешние (объективные) и внутренние (субъективные) группы, показано их влияние на компоненты аудиторского риска. В результате уточнена сущность банковского аудита и предложена методическая основа, обеспечивающая соответствие аудиторского подхода особенностям банков.

Ключевые слова: коммерческий банк, независимый аудит, финансовая отчётность, риск-факторы, аудиторский риск, МСА (ISA), МСФО (IFRS) 9, кредитный риск, внутренний контроль, сущность банковского аудита.

Abstract: The article examines the economic essence of the independent audit of commercial banks' financial statements and its specific features distinguishing it from the audit of ordinary enterprises. The research problem is the absence of a systematic classification of the risk factors affecting bank audit. Based on comparative analysis, grouping and a systems approach, these factors are divided into external (objective) and internal (subjective) groups, and their impact on the components of audit risk is demonstrated. As a result, the essence of bank audit is clarified and a methodological basis is proposed that ensures the conformity of the audit approach to the characteristics of banks.

Keywords: commercial bank, independent audit, financial statements, risk factors, audit risk, ISA, IFRS 9, credit risk, internal control, essence of bank audit.

KIRISH

Tijorat banklari moliyaviy hisoboti ustidan yuritiladigan mustaqil audit nazorati moliya-kredit tizimi barqarorligining tayanch ustunlaridan biriga aylangan. 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz bank hisobotlarining ishonchliligiga shubha uyg'ongani zahoti butun tizimga bo'lgan ishonch larzaga kelishini yaqqol ko'rsatdi. Aynan shu saboq Bazel qo'mitasining bank nazorati tamoyillari (Basel III), Auditning xalqaro standartlari (ISA) va Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (IFRS) riskka yo'naltirilgan audit falsafasi atrofida birlashtirdi. Natijada bank audit statik, hujjat-tekshiruvchi faoliyatdan bankning risk-profilini izchil baholovchi dinamik tizimga aylanib bormoqda.



Mamlakatimizda bank-moliya tizimini isloh qilish so'nggi yillarda izchil tus oldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son¹ Farmoni bilan tasdiqlangan bank tizimini isloh qilish strategiyasi va "O'zbekiston – 2030" strategiyasi bank aktivlarida xususiy sektor ulushini oshirish hamda davlat ulushiga ega banklardagi transformatsiyani nihoyasiga yetkazishni ko'zda tutadi. Bunday miqyosdagi o'zgarishlar bank faoliyatining shaffofligini kafolatlovchi audit tizimiga talabni keskin oshiradi: xususiylashtirish va investorlarni jalb qilish jarayonini ishonchli, mustaqil audit xulosasisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Islohotlarning huquqiy poydevori ham mustahkamlandi. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'RBQ-677-son² Qonuni auditni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish, audit sifatini nazorat qilish va audit qo'mitalari faoliyatini tartibga solish bo'yicha yangi me'yorlarni joriy etdi. Biroq ushbu me'yorlar amalga tatbiq etilgan bo'lsa-da, ularni bank xususiyatlariga moslashtirilgan yagona milliy metodologiya haligacha shakllanmagan. Aynan shu bo'shliq mazkur maqolaning tadqiqot maydonini belgilab beradi.

Bu zarurat sektor ko'rsatkichlarida ham o'z aksini topgan. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, respublika tijorat banklarining kredit portfeli sezilarli o'sib, muammoli kreditlar (NPL) ulushi esa audit sifatiga bevosita bog'liq ko'rsatkich sifatida diqqat markazida turibdi. E'tiborga molik jihat shundaki, muammoli kreditlarning asosiy qismi davlat ulushiga ega, tizimli ahamiyatga molik banklar zimmasiga to'g'ri keladi. Demak, kredit va operatsion risklarni o'z vaqtida aniqlash hamda xolis baholash vazifasi sektordagi eng yirik o'yinchilarning auditi sifatiga bevosita bog'lanib qoladi. Bu esa bank auditiga xos risklarni tizimli tasniflash zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mazkur maqolaning maqsadi — tijorat banklari moliyaviy hisoboti mustaqil auditing iqtisodiy mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini bank faoliyatiga xos risk omillarini tasniflash asosida aniqlashtirish hamda shu yo'l bilan audit yondashuvini bank xususiyatlariga muvofiqlashtirish bo'yicha metodik asosni ilgari surishdan iborat. Tadqiqot obyekti — tijorat banklari moliyaviy hisoboti mustaqil auditini tashkil etish jarayoni; predmeti — ushbu jarayonda yuzaga keladigan tashkiliy-metodik munosabatlar.

Maqolaning keyingi qismlari quyidagi mantiqda qurilgan: adabiyotlar sharhida audit nazariyasining asosiy maktablari va ularda ochiq qolgan masalalar tahlil qilinadi; metodologiya qismida tadqiqot usullari asoslanadi; tahlil va natijalar qismida bank auditing mohiyati aniqlashtirilib, risk omillarining tasnifi ishlab chiqiladi; xulosa qismida esa olingan natijalar umimlashtiriladi va amaliy tavsiyalar beriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Audit nazariyasining falsafiy-metodologik asoslari dastlab R. Mauts va H. Sharaf tomonidan ishlab chiqilgan. Ular audit postulatlarini — moliyaviy hisobotning tekshiriluvchanligi, auditor va rahbariyat o'rtasida majburiy manfaatlar ziddiyati yo'qligi, yetarli ichki nazorat xatolar ehtimolini kamaytirishi hamda standartlarning izchil qo'llanishi kabi farazlarni asoslab bergan (Mautz va Sharaf, 1961). Ayni shu ishlar zamonaviy riskka yo'naltirilgan audit paradigmasining nazariy asosini tashkil etadi, biroq ular umumnazariy darajada qolib, muayyan milliy bank tizimining xususiyatlariga kirmaydi.

Auditga bo'lgan iqtisodiy talabni izohlashda agentlik nazariyasi alohida o'rin tutadi: mulkchilik va boshqaruvning ajralishi natijasida yuzaga keladigan axborot asimmetriyasi va agentlik xarajatlarini mustaqil audit monitoring mexanizmi sifatida kamaytiradi (Jensen va Meckling, 1976). Zamonaviy audit adabiyotida riskka yo'naltirilgan va biznes-riskka yo'naltirilgan yondashuvlar rivojlantirilib, auditor subyekt faoliyatining biznes-risklarini ham hisobga olishi lozimligi asoslab berilgan (Arens va boshq., 2017; Hayes va boshq., 2014).

MDH davlatlari olimlari, jumladan V.I. Podolskiy, A.D. Sheremet, V.P. Suys, S.M. Bychkova va Ya.V. Sokolov auditing tashkiliy-metodik masalalarini, audit sifatini nazorat qilish va xalqaro standartlarni o'tish iqtisodiyoti sharoitiga moslashtirish yo'llarini yoritgan (Podolskiy va Savin, 2017). Ushbu an'ana o'tish iqtisodiyotiga yaqinligi bilan qimmatli, biroq IFRS 9 davri tug'dirgan yangi audit muammolarini to'la qamrab ololmaydi.

Respublikamizda A.K. Ibragimov, N.Q. Rizayev, K.R. Xatamov, Z.A. Umarov va boshqa olimlar buxgalteriya hisobi, IFRS va audit sohasida salmoqli ishlarni amalga oshirgan; moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar asosida yuritish va auditdan o'tkazish masalalari ularning darslik va tadqiqotlarida yoritilgan (Ibragimov va boshq., 2020).

1 <https://lex.uz/docs/-4811025>

2 <https://lex.uz/docs/-5307886>



Auditning tarixiy rivojlanishi uning mohiyatini tushunishda muhim. Zamonaviy mustaqil audit XIX asrda aksiyadorlik jamiyatlarining rivojlanishi va Buyuk Britaniyaning kompaniyalar to'g'risidagi qonunlari (Companies Acts) qabul qilinishi bilan shakllangan; mulkdorlar va boshqaruvchilarning ajralishi mustaqil tekshiruv zaruratini yuzaga keltirdi. Bank auditi esa XX asrda bank tizimining murakkablashuvi va moliyaviy inqirozlar ta'sirida alohida yo'nalish sifatida ajralib chiqdi. Bu evolyutsiya auditga bo'lgan talabni izohlovchi nazariy yondashuvlar — agentlik, axborot (signal), sug'urta va ishonchni oshiruvchi (lending credibility) nazariyalarning bank sharoitida birlashishini aks ettiradi (Jensen va Meckling, 1976; Limperg, 1985).

Xalqaro tartibga solish hujjatlari ham mazkur masalada muhim ahamiyat kasb etadi: Bazel qo'mitasining banklar tashqi auditi bo'yicha tamoyillari (Basel Committee on Banking Supervision, 2024) bank auditing o'ziga xosligini e'tirof etadi va auditorning tartibga soluvchi organ bilan samarali muloqot qilishini tavsiya etadi. Audit metodologiyasining birlashtiruvchi asosi sifatida esa Auditning xalqaro standartlari tizimi xizmat qiladi (IAASB, 2023). Yuqoridagi tahlil shuni ko'rsatadiki, audit nazariyasi yetarlicha rivojlangan bo'lsa-da, bank auditiga xos risk omillarini yaxlit tizim sifatida tasniflash va shu asosda audit yondashuvini bank xususiyatlariga muvofiqlashtirish masalasi o'z yechimini kutmoqda. Ushbu uzilishni to'ldirish mazkur maqolaning asosiy vazifasidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot sifat (kvalitativ) va qiyosiy tahlil paradigmasiga asoslangan bo'lib, uning dizayni ilmiy adabiyotlar tahlilidan tushunchaning nazariy aniqlashtirilishiga, undan esa risk omillarining tasnifi va audit yondashuviga muvofiqligini asoslashga tomon qurilgan. Tadqiqot jarayonida quyidagi umumilmiy usullar qo'llanildi: ilmiy abstraksiyalash — audit mohiyatini uning tasodifiy belgilaridan ajratib, muhim xususiyatlarini aniqlash uchun; induksiya va deduksiya — audit nazariyasining umumiy tamoyillaridan bank auditiga xos xulosalar chiqarish uchun; tahlil va sintez — bank auditi unsurlarini alohida o'rganib, keyin ularni yaxlit tizimga birlashtirish uchun.

Tadqiqotning asosiy usuli — qiyosiy tahlil bo'lib, u tijorat banki auditi va umumiy korxonalar auditing xususiyatlarini bir necha mezon bo'yicha taqqoslash orqali bank auditing o'ziga xosligini namoyon etish imkonini berdi. Risk omillarini tizimlashtirishda guruhlash va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi: omillar ularning manbai va nazorat qilinuvchanligiga ko'ra tashqi (obyektiv) va ichki (subyektiv) guruhlarga ajratildi. Shuningdek, audit riski modelini ($AR = IR \times CR \times DR$) qo'llash orqali har bir risk omilining audit riski tarkibiy qismlariga ta'siri baholandi.

Tadqiqotning ishonchligi (reliability) qo'llanilgan usullarning asoslanganligi va manbalarning rasmiyligi bilan, aniqligi (validity) esa xulosalarning ham xalqaro standartlar (ISA), ham milliy me'yoriy-huquqiy baza bilan muvofiqligi orqali ta'minlandi. Nazariy tahlil uchun audit nazariyasiga oid fundamental va zamonaviy ilmiy adabiyotlar, metodik asos sifatida esa Auditning xalqaro standartlari (ISA 200, ISA 315, ISA 320, ISA 540) hamda O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni (O'RQ-677, 2021) va Moliya vazirligining 2022-yildagi 171-son buyrug'i asos qilib olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banki mohiyatan ishonchga asoslangan institutdir: u millionlab omonatchilarning mablag'ini jamlab, uni kreditga aylantiradi va shu yo'l bilan butun to'lov muomalasini harakatga keltiradi. Aynan shu ishonchga tayanganligi bank moliyaviy hisobotining haqqoniyligini oddiy hisobdorlik masalasi doirasidan chiqarib, omonatchilar, investorlar, kreditorlar va tartibga soluvchi organlarni birdek qiziqtiruvchi jamoat ahamiyatiga ega masalaga aylantiradi. Adabiyotlar tahlili va me'yoriy baza umumlashtirilgan holda, tadqiqotda quyidagi aniqlashtirilgan ta'rif taklif etiladi.

Tijorat banki moliyaviy hisoboti mustaqil auditi deganda — bankning moliyaviy hisoboti barcha muhim jihatlari bo'yicha Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS) talablariga muvofiq haqqoniy aks ettirilganligi yuzasidan, bank faoliyatiga xos risk omillarini yaxlit hisobga olgan holda, mustaqil auditor tomonidan Auditning xalqaro standartlari (ISA) asosida xolis fikr bildirishga qaratilgan tekshiruv jarayonini tushunish maqsadga muvofiq. Bunday ta'rif auditing uchta muhim belgisini — mustaqillik, standartlashtirilganlik va bank risklariga yo'naltirilganlikni — ajratib ko'rsatadi.

Tijorat banklari auditi umumiy korxonalar auditidan bir qator o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi. Ushbu farqlar 1-jadvalda qiyosiy tarzda keltirilgan (1-jadval).



1-jadval

Tijorat banki auditi va umumiy korxonada auditning qiyosiy xususiyatlari³

Taqqoslash belgisi	Umumiy korxonada audit	Tijorat banki auditi
Tartibga solinganlik darajasi	Nisbatan past; umumiy qonunchilik doirasida	Juda yuqori; Markaziy bank prudensial talablari va maxsus tartibga solish
Hisobot asosi	IFRS yoki milliy standartlar	Asosan IFRS, jumladan IFRS 9 (moliyaviy instrumentlar)
Ustuvor risk turlari	Tovar-moddiy zaxiralar, debitorlik qarzi	Kredit, likvidlik, bozor va operatsion risklar
Hisobotdan foydalanuvchilar	Egalar, kreditorlar, soliq organlari	Omonatchilar, investorlar, Markaziy bank, keng jamoatchilik
Auditorga qo'yilgan talablar	Umumiy auditorlik malakasi	Banklarda tekshirish uchun maxsus malaka sertifikat

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, bank auditi yuqori darajada tartibga solinganligi, hisobotning IFRS, xususan, IFRS 9 asosida tuzilishi, risklarning xilma-xilligi hamda foydalanuvchilar doirasining kengligi bilan ajralib turadi. Bu xususiyatlar audit jarayoniga, ayniqsa, audit riskini baholash va auditorlik dalillarini yig'ishga nisbatan alohida yondashuvni talab qiladi.

Bank moliyaviy hisoboti mustaqil auditi uchta asosiy funksiyani bajaradi. Birinchisi — tasdiqlash (attestatsiya) funksiyasi: auditor moliyaviy hisobotning haqqoniyligini mustaqil ravishda tasdiqlaydi. Ikkinchisi — axborot funksiyasi: audit moliyaviy axborotning ishonchligini oshirib, foydalanuvchilarning qaror qabul qilishini osonlashtiradi va axborot riskini kamaytiradi. Uchinchi — prudensial (nazorat) funksiyasi: bank auditi tartibga soluvchi organ uchun bank faoliyatining qonunchilikka va prudensial me'yorlarga muvofiqi haqida ishonchli axborot taqdim etadi. Aynan uchinchi funktsiya bank auditini umumiy auditdan ajratib turuvchi muhim xususiyatdir.

Tadqiqotning asosiy ilmiy natijasi — bank auditiga ta'sir ko'rsatuvchi risk omillarini tizimli tasniflashdir. Omillar ularning manbai va bank tomonidan nazorat qilinuvchanligiga ko'ra tashqi (obyektiv) va ichki (subyektiv) guruhlariga ajratildi. Ushbu tasnif auditorga tekshiruvni rejalashtirish bosqichida risklarni yaxlit tizim sifatida baholash imkonini beradi (2-jadval).

2-jadval

Bank auditiga xos risk omillarining tasnifi va ularning audit riskiga ta'siri⁴

Guruh	Risk omillari	Audit riskiga ta'siri
Tashqi (obyektiv) omillar	<ul style="list-style-type: none"> Makroiqtisodiy beqarorlik (inflyatsiya, valyuta kursi, stavkalar) Tartibga solish muhitining qat'iyligi Bozor va likvidlik risklari 	Ichki xatarni (IR) oshiradi; faoliyat uzluksizligi va baholangan qiymatlardagi noaniqlikni kuchaytiradi
Ichki (subyektiv) omillar	<ul style="list-style-type: none"> Kredit riski va zahiralari (ECL) Operatsion va axborot texnologiyalari risklari Ichki nazorat tizimidagi nuqsonlar Rahbariyat noholisligi (management bias) 	Ham ichki xatar (IR), ham nazorat xatarini (CR) oshiradi; auditorni substantiv amallarni kengaytirishga undaydi

Tashqi omillar bankning bevosita nazoratidan tashqarida bo'lib, makroiqtisodiy beqarorlik, tartibga solish muhitining qat'iyligi hamda bozor va likvidlik risklarini qamrab oladi. Ichki omillar esa bankning o'z faoliyati bilan bog'liq bo'lib, kredit riski va zahiralari, operatsion hamda axborot texnologiyalari risklari, ichki nazorat tizimidagi nuqsonlar va rahbariyat noholisligini o'z ichiga oladi. Audit riski modeliga ($AR = IR \times CR \times DR$) ko'ra, ushbu omillar ichki xatar (IR) va nazorat xatari (CR) darajasini sezilarli ravishda oshiradi, bu esa auditorni aniqlash xatarini (DR) kamaytirish — ya'ni qo'shimcha substantiv amallarni rejalashtirish — yo'li bilan maqbul audit riski darajasiga erishishga undaydi.

Risk omillarining har biri audit jarayoniga alohida ta'sir ko'rsatadi. Kredit riski — bankning asosiy riski bo'lib, kreditlarning qaytarilmasligi va shunga mos zahiralarni baholashdagi noaniqlik bilan bog'liq; u moliyaviy hisobotdagi eng katta baholangan qiymatni shakllantiradi. Likvidlik riski bankning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olmasligi xavfi bo'lib, faoliyatning uzluksizligi (going concern) taxminini baholashda muhim. Bozor riski foiz stavkalari, valyuta kurslari va narxlar o'zgarishidan kelib chiqib, moliyaviy instrumentlarning adolatli

³ Manba: muallif ishlanmasi.

⁴ Manba: muallif ishlanmasi (ISA 315 va Basel Committee, 2024 asosida).



qiymatiga ta'sir ko'rsatadi. Operatsion va axborot texnologiyalari risklari bankning avtomatlashtirilgan tizimlari va ichki jarayonlari bilan bog'liq bo'lib, ma'lumotlar yaxlitligini shubha ostiga qo'yadi. Nihoyat, ichki nazorat tizimidagi nuqsonlar nazorat xatarini oshiradi.

Ushbu risk omillarining o'zaro bog'liqligi bank auditini umumiy korxonada auditidan ajratib turuvchi asosiy xususiyatdir. Masalan, makroiqtisodiy beqarorlik kredit riskini kuchaytiradi, bu esa zahiralarda va kutilayotgan kredit yo'qotishlarini (ECL) baholashdagi noaniqlikni oshiradi va bevosita nazorat xatariga ta'sir o'tkazadi. Shu bois auditor bank auditini rejalashtirishda ushbu omillarni alohida-alohida emas, balki yaxlit tizim sifatida baholashi lozim. Bundan tashqari, bankning jamoatchilik ishonchi va obro'si bilan bog'liq obro' riski (reputational risk) ham moliyaviy oqibatlariga ega bo'lib, auditor tomonidan e'tiborga olinishi kerak.

Taklif etilayotgan tasnif audit yondashuvining bank xususiyatlariga muvofiqligini quyidagi mexanizm orqali ta'minlaydi. Birinchidan, u auditorni ISA 315 talab qilgan "subyekt va uning muhitini o'rganish" bosqichida bankka xos risklarning to'liq ro'yxatiga yo'naltiradi va muhim xato risklarini (significant risks) aniqlash ehtimolini oshiradi. Ikkinchidan, tasnif har bir omilni audit riski modelining muayyan tarkibiy qismi bilan bog'lab, auditorga substantiv amallar hajmini riskka mutanosib tarzda taqsimlash imkonini beradi. Uchinchidan, tashqi va ichki omillarni farqlash auditorga bank nazoratidan tashqaridagi (makroiqtisodiy) risklarni kuzatish hamda bank ichidagi nazoratga bog'liq risklarni test qilish o'rtasida metodik chegara o'rnatish imkonini beradi.

Taklif etilayotgan tasnifning amaliy qiymatini yaqqolroq ko'rsatish maqsadida, har bir risk guruhining audit riski modeliga ta'siri va auditorning tegishli javob amallari 3-jadvalda umumlashtirilgan (3-jadval).

3-jadval
Bankka xos risk omillarining audit riski modeliga ta'siri va auditor javobi⁵

Risk manbai	Ta'sir etadigan komponent	Auditorning javob amali (ISA)
Makroiqtisodiy beqarorlik (tashqi)	Ichki xatar (IR)	Subyekt va muhitni o'rganish (ISA 315); faoliyat uzluksizligini baholash (ISA 570)
Kredit riski va ECL (ichki)	Ichki xatar (IR)	Baholangan qiymatlarni tekshirish (ISA 540); mustaqil baho shakllantirish
Ichki nazorat nuqsonlari (ichki)	Nazorat xatari (CR)	Nazorat testlari yoki substantiv amallarni kuchaytirish (ISA 330)
Axborot texnologiyalari risklari (ichki)	Nazorat xatari (CR)	Umumiy IT-nazoratni (ITGC) baholash; CAATsdan foydalanish
Rahbariyat noholisligi (ichki)	Ichki xatar (IR), firibgarlik riski	Kasbiy shubhani kuchaytirish (ISA 200); firibgarlik riskini baholash (ISA 240)

3-jadval ko'rsatadiki, taklif etilgan tasnif audit riski modelini mexanik ravishda qo'llashdan farqli o'laroq, har bir risk manbaini aniq bir auditorlik amali va tegishli ISA bilan bog'laydi. Bu auditorga riskka mutanosib javob amallarini tanlash — riskli sohalarda substantiv amallar hajmini kengaytirish, past riskli sohalarda esa nazorat testlariga tayanish — imkonini beradi. Aynan shu bog'liqlik audit yondashuvining bank xususiyatlariga muvofiqligini amaliy darajada ta'minlaydi.

Kasbiy shubha (professional skepticism) tamoyili bank auditida alohida ahamiyatga ega, chunki banklarda rahbariyatning mulohazasiga kuchli bog'liq bo'lgan sohalarda — kutilayotgan kredit yo'qotishlari, moliyaviy instrumentlarning adolatli qiymati, garovlar bahosi va faoliyat uzluksizligi — auditorlardan tanqidiy yondashuvni talab qiladi. Taklif etilayotgan tasnifda rahbariyat noholisligi (management bias) ichki omil sifatida alohida ajratilgani auditorni aynan shu yuqori subyektivlikka ega sohalarda kasbiy shubhani kuchaytirishga yo'naltiradi. Shu ma'noda tasnif nafaqat texnik, balki auditning sifat-etik jihatini ham qamrab oladi.

Bank auditining mohiyatini tushunishda uning iqtisodiy qiymati ham e'tiborga molik. Ishonchli va shaffof audit qilingan moliyaviy hisobot banklarning kapitalga bo'lgan qiymatini (cost of capital) kamaytiradi, chunki investorlar va kreditorlar ishonchli axborot mavjud bo'lganda kamroq risk mukofoti talab qiladi. Sifatli audit axborot riskini kamaytirib, bozor intizomini (market discipline) kuchaytiradi va tizimli risklarni pasaytiradi. Banklar uchun bu ayniqsa muhim, chunki ularning faoliyati omonatchilar, investorlar va kontragentlarning ishonchiga bevosita bog'liq. Shu ma'noda bank auditini nafaqat qonuniy talab, balki iqtisodiy zarurat hamdir — bu esa risk omillarini tizimli hisobga olish orqali audit sifatini oshirish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Taklif etilayotgan tasnif tashqi (mustaqil) va ichki audit o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni tashkil etishda ham amaliy qiymatga ega. ISA 610 talablariga ko'ra, tashqi auditor muayyan shartlarda bankning ichki auditini ishidan

⁵ Manba: muallif ishlanmasi (ISA talablari asosida).



foydalanishi mumkin, biroq bunda ichki auditning mustaqilligi, malakasi va ish sifatini baholashi shart. Risk omillarining yagona tasnifi tashqi va ichki auditorlarga riskli sohalarni bir xil metodik asosda aniqlash imkonini berib, audit qo'mitasi orqali ularning faoliyatini muvofiqlashtirishni osonlashtiradi. Bu korporativ boshqaruvning muhim bo'g'ini sifatida bank moliyaviy hisoboti ishonchligini oshiradi.

Taklif etilayotgan tasnifning yana bir amaliy jihati — u faoliyat uzluksizligi (going concern) taxminini baholashda tashqi va ichki omillarni bog'lashga imkon beradi. Banklar uchun bu masala ayniqsa nozik, chunki likvidlik yoki kapital yetishmovchiligi to'g'risidagi har qanday shubha omonatchilar ishonchiga ta'sir ko'rsatib, vaziyatni keskinlashtirishi mumkin. Auditor tashqi omillar (makroiqtisodiy beqarorlik, likvidlik bosimi) bilan ichki omillar (zahiralarning adekvatligi, kapital yetariligi) o'rtasidagi o'zaro ta'sirni yaxlit baholab, faoliyat uzluksizligi bo'yicha xulosa shakllantiradi.

Keng filiallar tarmog'i va sho'ba korxonalariga ega banklar uchun tasnifning guruh auditi (ISA 600) kontekstidagi ahamiyati ham sezilarli. Yirik banklarda risk omillari turli komponentlar bo'yicha turlicha namoyon bo'ladi: bir filialda kredit riski, boshqasida operatsion yoki IT-risk ustuvor bo'lishi mumkin. Taklif etilayotgan tasnif guruh auditoriga muhim komponentlarni aniqlash va har biriga nisbatan riskka mutanosib audit yondashuvini belgilash uchun yagona metodik asos beradi. Shu tariqa tasnif konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning ishonchligini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Shunday qilib, tahlil natijalari ko'rsatadiki, bank auditining mohiyati uning uchta funksiyasi (tasdiqlash, axborot, prudensial) va bank risklariga yo'naltirilganligi orqali aniqroq ifodalanadi; bank auditining umumiy korxonadan farqi esa tartibga solinganlik, hisobot asosi, risk turlari va foydalanuvchilar doirasi bo'yicha namoyon bo'ladi. Risk omillarining tashqi-ichki tasnifi ushbu o'ziga xoslikni tizimlashtirib, audit yondashuvini bank xususiyatlariga muvofiqlashtirish uchun metodik asos yaratadi. Bu natija Mauts va Sharafning klassik postulatlarini (Mautz va Sharaf, 1961) hamda riskka yo'naltirilgan audit yondashuvini (Arens va boshq., 2017) bank auditi sharoitiga moslashtirish yo'lidagi qadamdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida tijorat banklari moliyaviy hisoboti mustaqil auditining iqtisodiy mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari bank faoliyatiga xos risk omillarini tasniflash asosida aniqlashtirildi. Audit mohiyatining aniqlashtirilgan ta'rifi uning mustaqillik, standartlashtirilganlik va bank risklariga yo'naltirilganlik belgilarini birlashtiradi. Qiyosiy tahlil bank auditining umumiy korxonadan tartibga solinganlik, hisobot asosi (IFRS 9), risk turlari va foydalanuvchilar doirasi bo'yicha prinsipial farqlarini namoyon etdi.

Tadqiqotning asosiy ilmiy natijasi — bank auditiga xos risk omillarining tashqi (obyektiv) va ichki (subyektiv) guruhlariga ajratilgan tizimli tasnifi bo'lib, u har bir omilni audit riski modelining ($AR = IR \times CR \times DR$) tarkibiy qismlari bilan bog'laydi. Ushbu tasnif audit yondashuvining bank xususiyatlariga muvofiqligini ta'minlaydi va auditorga tekshiruvni rejalashtirishda risklarni yaxlit tizim sifatida baholash imkonini beradi.

Olingan natijalar asosida quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi: (1) auditorlik tashkilotlari bank auditini rejalashtirishda taklif etilgan risk omillari tasnifidan ISA 315 bo'yicha risklarni baholash dastlabki ro'yxati sifatida foydalanishi; (2) tashqi omillar (makroiqtisodiy beqarorlik, likvidlik) bo'yicha kuzatuv natijalarini faoliyat uzluksizligi va ECLni baholash bilan bog'lashi; (3) ichki omillar, xususan, axborot texnologiyalari nazorati bo'yicha nazorat testlarini kuchaytirishi; (4) tartibga soluvchi organ va auditorlik tashkilotlari darajasida bank auditiga xos risk kartasini standartlashtirishi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati bank auditi mohiyatining nazariy-metodologik asoslari boyitilgani bilan, amaliy ahamiyati esa ishlab chiqilgan tasnif va ta'rifdan auditorlik tashkilotlari, tijorat banklari, tartibga soluvchi organlar faoliyatida hamda oliy ta'limning "Audit" yo'nalishidagi o'quv jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, taklif etilayotgan tasnif ISA 315 (2019-yilda qayta ko'rilgan)ning ichki xatar omillari (inherent risk factors) — murakkablik, subyektivlik, o'zgaruvchanlik, noaniqlik va buzilishga moyillik — konsepsiyasi bilan muvofiqlashadi. Bank auditiga xos tashqi va ichki omillar aynan ushbu ichki xatar spektri orqali muhim risklarni (significant risks) aniqlashda amaliy vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu muvofiqlik tasnifning xalqaro standartlar tizimiga organik ravishda integratsiyalashuvini ta'minlaydi va uni amaliyotda qo'llash uchun ishonchli asos yaratadi.

Keyingi tadqiqotlarda mazkur tasnif asosida bank auditida audit riskini va jiddiylikni baholashning miqdoriy metodikasini ishlab chiqish, riskka yo'naltirilgan namuna tanlash yondashuvini shakllantirish hamda ularni yirik tijorat banklari (masalan, AT "Xalq banki") misolida aprobatsiyadan o'tkazish istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Shuningdek, tasnifni raqamli audit vositalari (CAATs) bilan bog'lash va axborot texnologiyalari nazoratini baholash metodikasini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biridir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Arens, A.A., Elder, R.J. and Beasley, M.S. (2017) Auditing and Assurance Services: An Integrated Approach. 16th edn. Harlow: Pearson Education.
2. Basel Committee on Banking Supervision (2024) Core Principles for Effective Banking Supervision. Basel: Bank for International Settlements.
3. Flint, D. (1988) Philosophy and Principles of Auditing: An Introduction. London: Macmillan Education.
4. Hayes, R., Wallage, P. and Gortemaker, H. (2014) Principles of Auditing: An Introduction to International Standards on Auditing. 3rd edn. Harlow: Pearson Education.
5. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB) (2023) Handbook of International Quality Management, Auditing, Review, Other Assurance, and Related Services Pronouncements. New York: IFAC.
6. IFRS Foundation (2024) IFRS 9 'Financial Instruments'. London: IFRS Foundation.
7. Jensen, M.C. and Meckling, W.H. (1976) 'Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure', Journal of Financial Economics, 3(4), pp. 305–360.
8. Limperg, T. (1985) The Social Responsibility of the Auditor. Amsterdam: Limperg Instituut.
9. Ибрагимов, А.К., Умаров, З.А., Хатамов, К.Р. ва Ризаев, Н.Қ. (2020) Тижорат банклариди молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари: Дарслик. Тошкент: «Иқтисод-молия».
10. Подольский, В.И. ва Савин, А.А. (2017) Аудит: учебник для вузов. Москва: Юрайт.
11. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'RBQ-677-son Qonuni // URL: <https://lex.uz/docs/-5307886>
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 171-son buyrug'i // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5952173>
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-son Farmoni // URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769>
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.05.2026-yildagi "Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlash va ularni attestatsiya qilish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-98-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-8236683>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>